Abdumalik ibn Nuh



Abdumalik ibn Nuh

Amiri Rashid

(944-961)

(954-961)

Somoniylar amiri. Otasi ***Nuh ibn Nasr*** vafot etgach 10 yoshida taxtga o‘tirgan. ***Nuh ibn Nasr*** davrida buvayhiylar bilan boshlangan urush Abdumalik ibn Nuh davrida (956) yarash bilan yakun topadi. Abdumalik ibn Nuh davrida davlatni idora qilishda lashkarboshilarning mavqei baland bo‘lgan. Masalan, hojiblik mansabiga tayinlangan **Alptegin**ning obro‘si oshib ketganidan xavfsirab, uni mansabidan chetlamoqchi bo‘lgan, biroq uddasidan chiqa olmagan. Abdumalik ibn Nuh chavgon o‘ynab, otdan yiqilib halok bo‘lgan.

2023-10-29 20:44:58